

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLYI VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI BUXORO DAVLAT
UNIVERSITETINING PEDAGOGIKA INSTITUTI MAKTABGACHA
TA‘LIM VA BOSHLANG‘ICH TA‘LIM NAZARIYASI VA
METODIKASI KAFEDRALARI**

**“BOSHLANG‘ICH VA MAKTABGACHA TA‘LIM SIFATI VA
SAMARADORLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI:
INNOVATSIYA, RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA XALQARO
TAJRIBALAR”**

RESPUBLIKA ILMYIY-AMALYIY ANJUMANIMATERIALLARI

2022-yil, 13-14 may

LINGVISTIK KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA MEDIA TA'LIM VOSITALARDAN FOYDALANISH

Dildora Omonova,
Buxoro davlat universiteti
tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada bugungi kunda media ta'lim vositalaridan foydalanish boshlang'ich ta'limda o'zining qanday samaradorligi va uni o'quvchida qanday usullar yordamida o'rgatish ijobiy natija berishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: lingvistik kompetensiya, media ta'lim vositalari; radio, televizor, internet.

Boshlang'ich ta'limda o'qitishda media ta'lim vositalarini qo'llashdan maqsad o'qituvchilar va o'quvchilar faoliyatida uni tushunarligini ta'minlashdan iborat. Har bir o'quvchining imkoniyatini hisobga olgan holda tashkil etish, bilim, ko'nikma va malaka hamda kompetensiyalarni takomillashtirish bugungi ta'lim oldida turgan dolzarb masalalardan biri sanaladi. Har bir o'quvchining imkoniyatini hisobga olish, bajarilgan ish uchun rag'batlantirish, xatoga yo'l qo'ygan o'quvchiga uni to'g'rilash imkonini berish zarur. Kundalik hayotini ommaviy axborot vositalarisiz tasavvur qila olmaydigan, ularda chop etiladigan, efirga uzatiladigan yangiliklar-u muammoli masalalar tahlillarini o'qib, eshitib, ko'rib fikrlaydigan, o'rgananlarini nafaqat yosh avlod, balki mahalla-ko'y ahliga yetkazib, ziyo taratidigan muallimlar ko'p yurtimizda. Avvalo, biz media ta'lim o'zi nima degan savolga javob berishimiz va media ta'lim vositalaridan foydalanib dars o'tish o'quvchiga qanday imkoniyatlarni beradi degan savolga javob topishimiz lozim. Media ta'lim hozirgi davrda shaxsning ommaviy axborot vositalari orqali rivojlanish jarayonini anglatadi. Media ta'lim media mahsulotlari bilan dars jarayonini tashkil qilish hisoblanadi.

O'quvchida ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchisida lingvistik kompetensiyani rivojlantirishda yuqorida keltirilgan media vositalardan foydalanish o'zining samarali va yuqori natijasini beradi.

Til tizimi haqida, til birliklarining nutqda ishlash qoidalari to'g'risidagi bilimlarga ega bo'lish, shuningdek, ushbu bilimlar yordamida boshqa odamning fikrini anglash va uni to'g'ri talqin qilish, o'z fikrlarini og'zaki va yozma shaklda ifoda etish qobiliyati lingvistik kompetensiya deyiladi.

Bolada lingvistik kompetentlik shakllanganligini nutq tovushlarini to'g'ri talaffuz qila olishida, fikrni bayon qilish uchun so'z va grammatik vositalarni og'zaki va yozma nutqida to'g'ri qo'llay olishi, o'z fikrini izchil bayon qila olishidan bilishimiz mumkin.

Darslikda berilgan mashqlarni bevosita o'yin shaklida tashkil qilib, televizor orqali qo'yib berilsa, o'quvchiga tushunish oson bo'ladi. Birinchi sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsligining 1-qismi, 81-betida bolani tinglab tushunish qobiliyatini rivojlantirish maqsadida "Sabzavotlar nima deydi?" sarlavhasi ostida audiomatn keltirib o'tilgan. Bu orqali boshlang'ich sinf o'quvchisida xotirada saqlab qolish qobiliyati mustahkamlanadi, shu bilan birga o'quvchida tinglagan audiomatnni qayta takrorlab aytib berish jarayonida ijodiy qobiliyati ham rivojlanib boradi.

Ta'limda multimedia texnologiyalaridan foydalanish an'anaviy ta'limga nisbatan quyidagi afzalliklarga ega:

doimiy yangilanish imkonini beradi;

rangli grafika, animatsiya, tovush, gipermatnlardan foydalanish imkonini beradi;

vaqtdan samarali foydalanish imkonini beradi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirishda media ta'lim vositalaridan foydalanish o'quvchiga:

birinchidan, o'quvchidan bugungi kunda zamonaviy ta'lim vositalar bilan dars jarayonini olib borishda;

ikkinchidan o'quvchi dars davomida multimedia texnologiyalaridan foydalansa, o'quv jarayonini boyitadi, o'rganishni yanada samarali qiladi, idrok etish jarayoniga jalb qiladi, o'quvchining hissiy komponentlarini namoyon qilishda yordam beradi;

uchinchidan, o'quvchida multimedia vositalaridan foydalanib dars jarayonini olib borish orqali foydalanishda o'quvchining motivatsiyasi kuchayadi, uning bilish faoliyati ham ongli, ham ong osti darajasida faollashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Omonova D.N. Methodigical fundamentals of linguistic competence in language teaching based on integrative approach // Middle European Scientific Bulletin.2021. – C.55-67.

2. Omonova D.N. The Linguistic competence in language teaching based on Integrative Approach.//World Science Problems and Innovations. 2021. C.213-216.
3. Omonova D.N. Improving the methodology of developing students` linguistic competencies in mother tongue education on the basis of an integrated approach // Middle European Scientific Bulletin. 2021. 474-482.
4. Nekmurod qizi D.O. "Integrativ yondashuv asosida ona tili ta'limini tashkil etish". Boshlang'ich ta'lim sifat va samaradorligini oshirish: strategiya, innovatsiya va ilg'or tajribalar. 2021.
5. Omonova D.N. Developing linguistic competence of students through adaptive teaching in primary schools//ResearchJet Journal of analysis and Inventions. 2021.,11. P – 12-19;
6. The Theoretical Fundamentals of Developing Linguistic Competences in Primary School Mother Tongue Lessons//European Journal of Innovation in Nonformal Education (EJINE) ISSN:2795-8612.2022-Feb.,12. P-209-210.
7. Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Tursun Sh. Ona tili va o'qish savodxonligi (1-sinf darsligi)-T: Respublika ta'lim markazi 2021. 81-b
8. Amonov U. S. Folklore in the works of Abdurauf Fitrat //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 10. – C. 9-12.
9. O.R.Avezov. [Ekstremal vaziyatlarda oilaga psixologik xizmat ko'rsatish amaliyoti.](#) PEDAGOGIK MAHORAT 3 (No. 13), 145-150.
10. Adizova Nigora Bakhtiyorovna. The Arrival of Great, Child and Khan Images in Interesting. European journal of life safety and stability (ejlss). www.ejlss.indexedresearch.org Volume 14, 2022
11. Bakhtiyorovna, Nodira Adizova. "Place Names and Related Concepts Study. "European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630) 14 (2022): 153-157.
12. Сафаров, Феруз Сулаймонович. "Фонетический строй уязыка и взаимообусловленность национальной музыки." *Science and Education* 3.3 (2022): 1072-1081.
13. Hayitov H.A. Literary influence and artistic image //Экономика и социум. – 2019. – №. 8. – C. 11-14.
14. Saidova M. Educate students by solving textual problems //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2019. – T. 7. – №.
15. Ergashovna S. G. Modern Lesson Forms in Mathematics in Primary Schools //European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). – 2022. – T. 14. – C. 106-109.
17. Дустова Д. С., Каримова Д. Э. Формирование у младших школьников текстовых умений на уроках русского уязыка //innovation in the modern education system. – C. 69
18. Xudoyberdiyeva N.O., O'roqova G. Folklorda makon va zamonning o'ziga xos talqini //Science and Education. – 2022. – T. 3. – №. 2. – C. 468-474.

HIKOYANI TAHLIL QILISHGA KREATIV ZAMONAVIY YONDASHUV

Idiyeva Gulchehra Izomovna,
BuxDUPI 1-kurs magistranti

Anotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilaridagi kreativlikni rivojlantirish maqsadida foydalanish lozim bo'lgan SWOT metodi haqida fikr yuritilgan. 4-sinf o'qish kitobida berilgan hikoya orqali amaliy tarzda yorqin ifodasini ko'rish mumkin. Hikoyani tahlil qilishda e'tibor qaratish lozim bo'lgan jihatlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: SWOT, metod, qiyoslash, taqqoslash, kuchli tomon, kuchsiz tomon, imkoniyat, to'siqlar, faollik.

Ta'lim metodlari ta'lim maqsadini yoritishga xizmat qiladi, u yordamida ta'lim mazmunini o'zlashtirish yo'llari ifoda etiladi, o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro harakati, xususiyati aks ettiriladi. Interfaol ta'lim metodlari o'quvchilarni faollikka undaydi, ularning qay darajada o'zlashtirganini qiyoslab, taqqoslab, ma'lum mavzu doirasida tushunchalarning aniq o'zlashtirilishiga samarali ta'sir qiladi. Shunday ta'sir qiluvchi metodlardan biri SWOT tahlil metodidir. Bu metodning kelib chiqish tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, dastlab Garvard universiteti professorlariga tegishli ekanligi aytilsa, ayrimlarida 1950-yillarda nazariya asosini yaratgan Sea Roland Kristensen ekanligi aytib o'tilgan. SWOT qisqartmasi birinchi marta Garvardda 1963-yilda professor Kennet Endryus tomonidan biznes siyosati mazmuniga bag'ishlangan konferensiyada yangradi. 1965-yilda firmaning xatti-harakatlari strategiyasini ishlab chiqish uchun SWOT tahlili taklif qilindi. Dastlab, bu tahlil biznesni rivojlantirish uchun ishlab

Boymurodova Gulzoda Toshtemirovna, N. Z. Qodirova, MAKTABGACHA TA'LIMDA QO'LLANADIGAN O'YINLARNING PEDAGOGIK AHAMIYATI.....	161
Sidiqova Yulduz Sobirovna, KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILAR BILISH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	164
Davranova Gulbahor Numondjonovna, BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIGA RUS TILINI O'QITISHDA DIDAKTIK O'YINLARNING O'RNI.....	165
Zohidova Sanoat Raxmonovna, MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLALARNI IJTIMOY MOSLASHTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	168
Haydarqulova Mahliyo Zafarovna, BOSHLANG'ICH SINFLAR MATEMATIKA DARSLARIDA O'QUVCHILARDA AXBOROT KOMPETENTLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI.....	171
Davranova Gulbahor Numondjonovna. BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING RUS TILIDA LUG'ATLAR BILAN ISHLASH JARAYONIDA KREATIVLIGINI OSHIRISH.....	174
Turdieva Mohira Jo'raqulovna, "TIL VA NUTQ" MARKAZINING BOLALAR IJODIY QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI.....	176
Қодирова Ферузахон Усмановна, Умаралиева Муҳайё Абдугапаровна, НОГИРОНЛИГИ БЎЛГАН БОЛАЛАРНИ ТЎЛАҚОНЛИ ХАЁТ ТАРЗИГА ТАЙЁРЛАШДА УЙДАГИ ЯККА ТАЪЛИМНИНГ ТАШКИЛИЙ-ПЕДАГОГИК АСПЕКТЛАРИ.....	178
Раҳимова Сурайё Салоҳиддиновна. МАЛАКА ОШИРИШ ЖАРАЁНИДА БОЛА ШАХСИГА ЙЎНАЛТИРИЛГАН ТАЪЛИМ МАШҒУЛОТЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА БОШҚАРИШ.....	180
2- SHO'BA: BOSHLANG'ICH TA'LIMDA XALQARO VAHOLASH DASTURLARI VA XORIJ TAJRIBALARINI TATBIQ ETISH – YANGI O'ZBEKISTON STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISH DRAYVERI SIFATIDA.....	183
Saidova Mohinur Jonpo'latovna, BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QITUVCHISINING MATEMATIK-METODIK TAYYORGARLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	183
Dilova Nargiza Gaybullaevna, O'QUVCHILAR BILIMINI VAHOLASHDA PIRLS TADQIQOTLARIDAN FOYDALANISH.....	186
Dildora Omonova, LINGVISTIK KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA MEDIA TA'LIM VOSITALARDAN FOYDALANISH.....	189
Idiyeva Gulchehra Izomovna, NIHOYANI TAHLIL QILISHGA KREATIV ZAMONAVIY YONDASHUV.....	190
Yoriyeva Zarifa Hamroyevna. OKKAZIONALIZMLARNING BADIY ASAR TAHLILI VA TARAQQIYOTIDAGI O'RNI.....	193
Raximova Ruxsora Haydar qizi. MILLIY O'QUV DASTURI ASOSIDA TAYYORLANGAN ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLIGINING TA'LIMGA OLIV KIRAYOTGAN YANGILIKLARI.....	195
Алимова Анастасия Николаевна, ВВЕДЕНИЕ PIRLS В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЙ ПРОЦЕСС КАК ОДНА ИЗ ИННОВАЦИЙ СОВРЕМЕННОГО ОБУЧЕНИЯ.....	197
Karimova Kamola Komil qizi. BOSHLANG'ICH SINFLAR MATEMATIKA DARSLARIDA XORIJ TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH.....	198
Юлия Землина, СОВРЕМЕННЫЕ СИСТЕМЫ ОЦЕНИВАНИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ В КОНТЕКСТЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ОБУЧЕНИЯ.....	200
G. E. Saidova. PIRLS – BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING VAHOLASH DASTURIDA ISHTIROK ETISHI.....	202
Ro'ziyev Farhod Jo'rayevich, RIVOJLANGAN DAVLATLARDA BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING BILIMINI VAHOLASH.....	204
Sobirova Zebo Komil qizi, Ro'ziyeva Zilola Karomatovna, BOSHLANG'ICH SINFLAR MATEMATIKA DARSLARIDA MILLIY O'QUV DASTURINI JORIY ETISH MASALLARI.....	205
X. Xamidjonova, BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINI PIRLS XALQARO DASTURLARIGA TAYYORLASH.....	207
D.V. Qarshiboyev, BOSHLANG'ICH SINFLARDA ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH – TA'LIM SIFATI KAFOLOTI.....	210
Ne'matova Flora Baxtiyor qizi. BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QISH DARSLARI JARAYONIDA PIRLS XALQARO VAHOLASH DASTURINI JORIY ETISH.....	212
С. И. Холматова, КИТОБХОНЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШ АСОСИДА ХАЛҚАРО БАҲОЛАШНИНГ ПЕДАГОГИК АСОСЛАРИ.....	214